

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quدرات o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	



AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich

dotsent, Guliston davlat universiteti

akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi, uning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati hamda aholining moliyaviy bilim, ko'nikma va xulq-atvorini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan xalqaro tajribalar, indikatorlar va baholash usullari o'rganilgan. Maqolada aholining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish, moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish hamda moliyaviy savodxonlikni baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, aholi moliyaviy savodxonligi, moliyaviy bilimlar, moliyaviy ko'nikmalar, moliyaviy xulq-atvor, moliyaviy qaror qabul qilish, moliyaviy ta'lim, moliyaviy xizmatlar, moliyaviy savodxonlikni baholash, xalqaro tajriba.

Abstract. This article analyzes the concept of financial literacy of the population, its importance in ensuring economic stability, and the scientific and methodological foundations for assessing the financial knowledge, skills, and behavior of the population. International experience, indicators, and assessment methods used to determine the level of financial literacy were also studied. The article developed scientific and practical proposals for improving the population's ability to make financial decisions, stimulating the effective use of financial services, and improving the system for assessing financial literacy.

Key words: financial literacy, financial literacy of the population, financial knowledge, financial skills, financial behavior, financial decision-making, financial education, financial services, financial literacy assessment, international experience.

Аннотация. В данной статье анализируется понятие финансовой грамотности населения, ее значение в обеспечении экономической стабильности, а также научно-методические основы оценки финансовых знаний, навыков и поведения населения. Также были изучены международный опыт, индикаторы и методы оценки, используемые при определении уровня финансовой грамотности. В статье разработаны научно-практические предложения по повышению способности населения принимать финансовые решения, стимулированию эффективного использования финансовых услуг и совершенствованию системы оценки финансовой грамотности.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовая грамотность населения, финансовые знания, финансовые навыки, финансовое поведение, принятие финансовых решений, финансовое образование, финансовые услуги, оценка финансовой грамотности, международный опыт.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy barqarorlik va mutanosib rivojlanish, aholining turmush darajasi hamda farovonligi ko'p jihatdan fuqarolarning moliyaviy savodxonligiga bog'liqdir. Moliyaviy savodxonlik ayniqsa mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti rivojlanishi va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi uchun muhim omil sanaladi. Shu bois, rivojlangan davlatlarda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu sohada davlat tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus idoralar va tashkilotlar faoliyat yuritadi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida bu vazifa Moliyaviy savodxonlik va ta'lim bo'yicha komissiya (FLEC), Avstraliyada Moliyaviy axborot xizmati (FIS), Kanadada Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarini himoya qilish xizmati (FCAC), Buyuk Britaniyada Moliyaviy xizmatlar bo'yicha boshqarma (FSA) tomonidan amalga oshiriladi. Bu holat aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi muhim o'rnini yaqqol namoyon etadi.

Jahoning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislari moliyaviy savodxonlik mazmun-mohiyati hamda uning darajasini oshirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu tadqiqotlar moliyaviy



xizmatlar sohasi va moliyaviy bozorning rivojlanishiga, qisqa va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga, fuqarolarning shaxsiy moliyasini boshqarish va uni ko'paytirish yo'llariga, shuningdek, moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholi bilimlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji, ishsizlik darajasini kamaytirish va kredit mablag'larini samarali o'zlashtirishga oid yo'nalishlarda ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinayotgani mamlakat taraqqiyotida ushbu sohaning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Jumladan, 2014-yil 11-iyuldagi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq "O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Savdo-sanoat palatasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi hamkorligida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan turli dasturlar yo'lga qo'yilgan. 2018-yilda O'zbekiston Markaziy banki Moliyaviy ommaviylik alyansiga (Alliance for Financial Inclusion) a'zo bo'lib, moliyaviy savodxonlik sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamladi. Mazkur jarayonlar aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini, uni baholash usullarini, omillarini va tartibga solish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi moliyaviy savodxonligining iqtisodiy mazmuni va uni oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Dartmut kolleji professori Annamariya Lusardi (Dartmut kolleji), Olivia S. Mitchell (Pensilvaniya universiteti), Vilsa Curto (Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi) yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik masalalari [1]; Eva Mpata, Naomy Koske (Kenya universiteti) tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikning o'zaro bog'liqligi [2]; Majid Murad (Jiangsu Universiteti), Cai Li (Jiangsu Universiteti), Muhammad Munir (Narowal Universiteti), Sheikh Farhan Ashraf (Jiangsu Universiteti), Surhbi Arora (Panjob Universiteti) moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik xulq-atvorining o'zaro ta'siri [3]; Ojogbo (Nigeriya) moliyaviy savodxonlikning bitiruvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalariga ta'siri [4]; Emmanuel Kojo (Janubiy Afrika Respublikasi Venda Universiteti) moliyaviy savodxonlik va yoshlar tadbirkorligi [5]; Nikolaos D. Philippas va Christos Avdoulas (Gretsiya) Z avlod talabalarining moliyaviy savodxonligi [6]; Mohamad Fazli Sabri (Putra Univesiteti, Malayziya), Maurice MacDonald (Kanzas Universiteti, AQSH) kollej talabalarining moliyaviy xulq-atvori [7]; Sang-Hee Sohn, So-Hyun Joo, John E. Grable, Seonglim Lee, Minjeung Kim (Janubiy Koreya) Janubiy Koreya yoshlarining moliyaviy ijtimoiylashuvi [8]; Stolper, Oscar, Andreas Walter (Germaniya Mtaburg universiteti) moliyaviy xulq-atvor [9]; Al-Mamary, Yaser Hasan Salem (Saudiya Arabistoni) Saudiya Arabistonida talabalarning tadbirkorlik xulq-atvorini shakllantirish [10] va shu kabi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning holati, o'ziga xos xususiyatlari va uni oshirish masalalari A.V. Vaxabov [11], O.S. Dusmuhamedov, Sh.A. Dusmuhamedova kabi olim va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan [12].

Biroq, ushbu tadqiqotlarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini o'rganish va uni baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlash uchun tahliliy, solishtirma va empirik metodlardan foydalanilgan. Tahliliy-metodik yondashuv yordamida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, shuningdek, xalqaro statistik ma'lumotlar o'rganilgan; solishtirma usul orqali O'zbekiston holati va xorijiy tajribalar taqqoslangan. Empirik tadqiqotlar doirasida so'rovnomalar va intervyyular asosida aholining moliyaviy bilimlari, ko'nikmalari va xulq-atvori baholangan. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish, rag'batlantirish va tartibga solish mexanizmlari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinib, aholining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor munosabatlarining shakllanish jarayonlari yanada jadalroq tus olmoqda, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanish salmog'i sezilarli ravishda ortib bormoqda. Iqtisodiy resurslardan foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko'proq moddiy manfaatdorlik, rag'batlantirish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali yondoshilmoqda. Bularning barchasi esa iqtisodiyotimizning demokratik bozor tamoyillari asosida qayta tarkib topishiga zamin bo'lmoqda.

Biroq, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda samarali va demokratik bozor tamoyillarini to'liq tarkib topishi fuqarolarning iqtisodiy bilim va malakalari, ko'nikmalari darajasiga, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog'liq. Iqtisodiy madaniyatning yetarli darajada shakllanishi va samarali amal qilishi esa har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Shunga ko'ra, hozirda jahonning aksariyat mamlakatlarida



aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda ham aholi moliyaviy savodxonligini ta'minlash va oshirish muhim bo'lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlarni belgilash avvalo mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rnini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Moliyaviy savodxonlik va uni ta'minlash masalalariga xorijiy olim va mutaxassislar tomonidan keng e'tibor qaratib kelinmoqda. Avvalo, mazkur tushuncha ta'rifiga to'xtalib o'tiladigan bo'lsa, ijtimoiy lug'at va talqinlarda unga quyidagicha yondashilgan:

"Moliyaviy savodxonlik – bu inson moliyaviy xulq-atvori sohasidagi uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga olib keluvchi bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmui; hayotdagi voqealar va iqtisodiy shart-sharoitlardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarishdagi qobiliyat va qat'iylikni, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglab etishni ifodalovchi daraja"[13].

G.V.Belexova, O.N.Kalachikova tadqiqotlarida ta'kidlashicha "moliyaviy savodxonlik deganda insonning moliyaviy kompetentsiya va xatti-harakatlarining umumlashirilgan tavsifi tushunilib, u bilimlar, amaliy ko'nikmalar, axborotga egalik va shaxsiy javobgarlikning uzviy birikmasini taqozo etadi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlik moliyaviy xulq-atvorning bilim va faoliyat tomonlarini tavsiflaydi"[14].

Shunisi ahamiyatliki, moliyaviy savodxonlik – bu o'z moddiy farovonligini yaxshilashga intilganlar uchun shunchaki qo'shimcha bilim va ko'nikma emas, balki barcha individlarning ajralmas kompetentsiyasi, hayotining majburiy tarkibiy qismi (sog'lom turmush tarzini olib borish, kasbiy mahorati va ma'lumot darajasini oshirish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish va h.k. singari) hisoblanadi.

A.Sudakovaning ta'kidlashicha "Hozirgi vaqtda moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy ma'lumot, kompetentlik, xabardorlik va boshqa atamalar bilan uzviy bog'liq. Moliyaviy savodxonlikning ko'rsatib o'tilgan tushunchalar bilan asosiy farqi unga tegishli bo'lgan asosiy elementlarning tatbiq etilish kengligi va bayon etilishining chuqurligida namoyon bo'ladi. ...Shaxsning moliyaviy savodxonligi tushunchasini o'z farovonligini oshirish uchun moliyaviy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi kompetentsiyalar yig'indisi sifatida talqin etish mumkin. Ayni vaqtda u ustun ravishda moliyaviy va vaqt bo'yicha yo'qotishlarni eng kam darajaga tushirishga imkon yaratadi"[15]. Mazkur tushunchalar O.Kuzina tomonidan nisbatan batafsil va etarli darajada tushunarli holda bayon etilgan [16]. Shuningdek, S.Xaston tomonidan moliyaviy savodxonlikka tegishli 52 ta ma'lumotlar bazasida to'plangan 71 ta tahlil asosida ayrim dastlabki ta'riflar belgilab berilgan[17].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta'rif berilgan: "Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar (hayotiy yo'nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmui" [18].

Xalqaro moliya korporatsiyasining ta'rifiga ko'ra, "Moliyaviy savodxonlik – bu insonning o'z moliyasini boshqarish uchun zarur bo'lgan asosiy kontseptsiyalarni tushunishidir" [19].

Moliyaviy savodxonlik – o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish mahorati. U moliyaviy bozorning o'ziga xosliklarini bilish, bozor ishtirokchilari tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlardan xabardor bo'lish hamda shu asosda qabul qilingan qaror mas'uliyatini zimmasiga olish degani hamdir [20].

"Moliyaviy savodxonlik deganda ko'pincha jismoniy shaxslarning ham joriy davrda, ham uzoq muddatli istiqbolda o'z pul mablag'lari boshqarish va samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatlari tushuniladi. Ayni paytda turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud:

- kishilarning hayot kechirish uchun etarli mablag' topa olish, shaxsiy moliyaviy holati ustidan nazorat qilish, bo'lg'usi daromad va xarajatlarini, pensiyalarini rejalashtirish, moliyaviy mahsulotlarni to'g'ri tanlash va moliyaviy masalalarni tushunish (Buyuk Britaniya, Moliyaviy xizmatlar sohasida nazorat va tartibga solish bo'yicha boshqarma);

- har bir inson uchun muntazam o'zgarib turuvchi shaxsiy va tashqi iqtisodiy ahvolga samarali ta'sir qilish imkoniyati (AQSh, Moliyaviy savodxonlik bo'yicha maslahat kengashi);

- moddiy farovonlikka ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy shart-sharoitlarni o'qish, tahlil qilish, boshqarish va ajrata olish ko'nikmasi (AQSh, Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar instituti)".

Alifanova E.N., Evlaxova Yu.S. fikriga ko'ra, "moliyaviy savodxonlik" tushunchasini ochib beruvchi komponentlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) quyidagi mavzu yo'nalishlari bo'yicha moliyaviy bilimlar:

- shaxsiy moliyaviy rejalashtirish;
- daromad va xarajatlar byudjeti;
- bank depozitlari va kreditlar;
- fond bozori vositalari (aktsiyalar, obligatsiyalar, paylar);
- fond bozori mexanizmi;
- sug'urtalash;



– jismoniy shaxslarni soliqqa tortish va boshqalar;
2) o'zida takrorlash va avtomatizm darajasiga etkazish yo'li bilan shakllangan faoliyatni namoyon etuvchi ko'nikmalar. Mualliflarning fikriga ko'ra, moliyaviy ko'nikmalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shaxsiy moliyaviy rejalashtirish;
- daromad va xarajatlar byudjetini yuritish;
- shartnoma va boshqa moliyaviy hujjatlarni to ular imzolangunga qadar o'qib chiqish;
- boshqalar;

3) shaxsiy moliya sohasidagi bilim, ko'nikmani qo'llay olish, muammolarni hal etishda amaliy tajriba asosida muvaffaqiyatli harakat qila olish qobiliyatlarini o'zida namoyon etuvchi moliyaviy kompetentsiyalar. Moliyaviy kompetentsiyaga quyidagilar misol bo'la oladi:

– investitsiyalash va/yoki kredit olish bo'yicha murojaat qilishda mavjud muqobil yo'llarni taqqoslash qobiliyati;

- moliyaviy xizmatlarni ongli ravishda tanlashni amalga oshira olish mahorati [21].

Moliyaviy savodxonlik komponentlari hamda riskka moyillik bilan bir qatorda xulq-atvor jihatini ham ajratib ko'rsatish lozim: shaxsiy moliyaga taalluqli ob'ektlar va holatlarga nisbatan qabul qilish va xulq-atvor munosabatlarini anglatuvchi qadriyatlar.

Mualliflar nuqtai nazariga ko'ra, moliyaviy sohadagi bunday xulq-atvor ustanovkalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) moliyaviy institutlarga ishonch/ishonchsizlik;
- 2) aholi individual moliyaviy qarorlar bo'yicha mas'uliyatni davlatga yuklashni taqozo etuvchi iqtisodiy paternalizm yoki iqtisodiy individualizm;
- 3) fuqarolarning mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga passiv va yuzaki munosabatini anglatuvchi iqtisodiy indifferentlik, yoki iqtisodiy faollik;
- 4) qonunlarga rioya qilishga nisbatan foydaning ustuvorligi yoki foyda olishga nisbatan qonunlarga rioya qilishning ustuvorligi;
- 5) pulga bo'lgan munosabat [22].

Moliyaviy savodxonlikka berilgan turli ta'riflar va uning asosiy jihatlarini tizimli yondashuv bilan o'rganilganda, mazkur tushunchaning iqtisodiy mazmuni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik shaxsning moliya sohasidagi bilim va ko'nikmalarini, moliyaviy jarayon va voqealarni to'g'ri tushunishni, shuningdek, resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu tushuncha kundalik iqtisodiy faoliyatdan (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or xaridlari, kommunal to'lovlar, ish haqi va nafaqa olish) tortib tadbirkorlik faoliyati, kreditlar va investitsiya operatsiyalarigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Mamlakatda aholi moliyaviy savodxonligining yuqori darajasi moliyaviy xizmatlar sohasining rivojlanishiga va uy xo'jaliklarining barqaror iqtisodiy faolligiga yordam beradi. Moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish va aholining bilimini oshirish kichik biznes subyektlarining talabini rag'batlantiradi, ishsizlikni kamaytiradi va aholining moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda ham fuqarolarning shaxsiy moliya masalalariga yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin, shuning uchun ta'lim va treninglar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikning markazida inson turadi, chunki u o'z resurslaridan jamiyat va o'z manfaatlarini uchun samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham katta: shaxsning moliyaviy bilim va ko'nikmalari butun jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Savodsizlik esa noto'g'ri moliyaviy qarorlar, qarzdorlikning oshishi, moliyaviy firibgarlik va piramidalar sonining ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat shaxsiy byudjetni boshqarish, balki bank va sug'urta xizmatlarini tushunish, investitsiya tamoyillarini bilish, risk va daromadlilikni baholash, iste'mol huquqlarini bilish va pensiya rejalashtirishni ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy risklarni boshqarish, ortiqcha qarzdorlik va bankrotlikka yo'l qo'ymaslik imkoniyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aholi moliyaviy savodxonligi bo'yicha xilma-xil ta'riflar mavjudligi mamlakat yoki hududlar darajasida yagona xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi, bu esa mazkur sohani tadqiq qilishning dolzarbligini yanada oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savodxonligi uning shaxsiy moliyasini boshqarish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy qarorlar qabul qilish va turli moliyaviy vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Moliyaviy savodxonlik nafaqat uy xo'jaliklarining daromadlarini oshirish va ijtimoiy aloqalarni kengaytirishga, balki tadbirkorlik faoliyatiga kirishish va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va zamonaviy moliyaviy



xizmatlarni tushunish ko'nikmalari aholining moliyaviy resurslarini samaraliroq boshqarishga yordam beradi va risklarni kamaytiradi. Tadqiqot shuningdek moliyaviy savodxonlikning jamiyatdagi makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi mamlakatdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari va tadbirkorlik faolligiga sezilarli ta'sir qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy ta'lim va treninglar orqali aholiga daromad va xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy risklarni baholash, turli moliyaviy vositalardan foydalana olish, shuningdek noqonuniy faoliyatlardan himoyalanih ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Moliyaviy savodxonlik shuningdek uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularni qaror qabul qilishda ongli va mas'uliyatli bo'lishga rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari odatda yoshlar auditoriyasiga qaratilgan bo'lsa-da, katta yoshdagi aholining moliyaviy xulq-atvorini o'zgartirish va ularni zamonaviy moliyaviy xizmatlar bilan tanishtirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois, mahalla instituti va "mahallabay" ishlash tizimi orqali aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat mahallalar darajasida, balki mamlakat bo'ylab iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Raqamli moliyaviy xizmatlar va zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish qobiliyatini oshirish orqali aholining moliyaviy farovonligi yanada mustahkamlanadi. Moliyaviy savodxonlik faqat rag'bat sifatida qaralmasligi, balki barqaror tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad darajasini oshirishdagi asosiy vosita sifatida qabul qilinishi kerak. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish mamlakatda ishsizlikni kamaytirish, o'rta sinfni mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lusardi, Annamaria, Olivia S. Mitchell, and Vilsa Curto. "Financial literacy among the young." *Journal of consumer affairs* 44.2 (2010): 358-380.
2. Mpaata, Eva, Naomi Koske, and Ernest Saina. "Does self-control moderate financial literacy and savings behavior relationship? A case of micro and small enterprise owners." *Current Psychology* 42.12 (2023): 10063-10076.
3. Murad, Majid, et al. "The influence of entrepreneurial passion in the relationship between creativity and entrepreneurial intention." *International Journal of Global Business and Competitiveness* 16.1 (2021): 51-60.
4. Ojogbo, L. U., et al. "Financial literacy and development of entrepreneurial intentions among graduates of selected tertiary institutions in Nigeria." *Int. J. Res. Pub. Rev* 3 (2022): 1052-1061.
5. Kojo Oseifuah, Emmanuel. "Financial literacy and youth entrepreneurship in South Africa." *African journal of Economic and management studies* 1.2 (2010): 164-182.
6. Philippas, Nikolaos D., and Christos Avdoulas. "Financial literacy and financial well-being among generation-Z university students: Evidence from Greece." *Financial literacy and responsible finance in the FinTech era*. Routledge, 2021. 64-85.
7. Sabri, Mohamad Fazli, and Maurice MacDonald. "Savings behavior and financial problems among college students: The role of financial literacy in Malaysia." *Cross-Cultural Communication* 6.3 (2010): 103-110.
8. Sohn, Sang-Hee, et al. "Adolescents' financial literacy: The role of financial socialization agents, financial experiences, and money attitudes in shaping financial literacy among South Korean youth." *Journal of adolescence* 35.4 (2012): 969-980.
9. Stolper, Oscar A., and Andreas Walter. "Financial literacy, financial advice, and financial behavior." *Journal of business economics* 87 (2017): 581-643.
10. Al-Mamary, Yaser Hasan Salem, et al. "Factors impacting entrepreneurial intentions among university students in Saudi Arabia: testing an integrated model of TPB and EO." *Education+ Training* 62.7/8 (2020): 779-803.
11. Vaxabov A.V. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma / A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, N.X. Xaydarov, A.V. Vaxabov. – Toshkent: Baktria press, 2013, 288 b.
12. Дусмухамедов О.С., Дусмухамедова Ш.А. Аҳолининг молиявий саводхонлигини баҳолашнинг назарий асослари // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. – 43-52-б.
13. Кузина, О. Е. Финансовая грамотность россиян (динамика и перспективы) [Текст] / О. Е. Кузина // Деньги и кредит. – 2012. – № 1. – С. 68–72.
14. Remund D. Financial literacy explicated: the case for a clearer definition in an increasingly complex economy. *Journal of Consumer Affairs*, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 276–295.
15. Nicolini G., Cude B. J., Chatterjee S. Financial literacy: a comparative study across four countries. *International Journal of Consumer Studies*. Available at: <http://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/ijcs.12050/full>
16. Atkinson A., Messy F-A. Measuring financial literacy: results of the OECD INFE Pilot Study. *OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions*, 2012, no. 15. Available at: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>
17. Повышение уровня финансовой грамотности – накопление в обществе человеческого потенциала [Текст] // Экономика мегаполисов и регионов. – 2010. – № 3. – С. 12–21.
18. Белехова Г.В., Калачикова О.Н. Финансовая грамотность молодежи (на материалах Вологодской области) // Проблемы развития территории. Вып. 5 (85). – 2016. - С.93.



19. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582.
20. Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. 2015. № 8. С. 129-148.
21. Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.
22. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.
23. Алифанова Е.Н., Евлахова Ю.С. Анализ методических подходов к разработке индикаторов финансовой грамотности населения. Финансовая система. – 2013, №12 (540). – С.19.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>